

O'ZBEKISTONDA YOSHLAR VA AYOLLAR SPORTINI RIVOJLANTIRISH DAVLAT SIYOSATINING MUHIM YO'NALISHI

Temirova Dildorakhon Zulfikarovna

Andijon davlat universiteti tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20175572>

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida bolalar va ayollar sportining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda xalqaro sport maydonidagi yutuqlari tarixiy manbalar asosida tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: yoshlar sporti, xotin-qizlar sporti, "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada", bolalar sporti

Abstract: This article analyzes the formation, stages of development and achievements of children's and women's sports in the Republic of Uzbekistan during the years of independence, based on historical sources.

Key words: youth sports, women's sports, "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universiada", children's sports

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarda "Umid nihollari", "Barkamol avlod" va "Universiada" sport musobaqalari yoshlarning jismoniy barkamolligini ta'minlash, iqtidorli sportchilarni saralash va professional sportga yo'naltirishning muhim tizimi sifatida baholanadi. Ayniqsa, ushbu sport musobaqalarining hududiy va respublika bosqichlarida o'tkazilishi yoshlar o'rtasida sportni ommalashtirish hamda sport infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat qilgani qayd etiladi.

Shuningdek, tadqiqotchilar tomonidan O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Ilmiy manbalarda ushbu jamg'arma bolalar sportining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy sport inshootlarini qurish hamda yoshlarni sportga keng jalb qilishda muhim institutsional mexanizm sifatida talqin qilinadi.

Xotin-qizlar sportiga oid ilmiy qarashlarda esa ayollar salomatligini mustahkamlash, ularni sportga ommaviy jalb etish va gender tenglikni ta'minlash masalalari ustuvor o'rin egallaydi. Ayniqsa, davlat dasturlari, Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida ayollar sportini qo'llab-quvvatlash tizimi bosqichma-bosqich rivojlangani ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Bundan tashqari, mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda o'zbek sportchilarining xalqaro maydondagi muvaffaqiyatlari, xususan Jahon Universiadasi, Osiyo o'yinlari va jahon chempionatlaridagi natijalari O'zbekiston sport siyosatining amaliy samarasi sifatida baholanadi.

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida tarixiylik, xolislik, tizimlilik va qiyosiy tahlil tamoyillariga asoslanildi. Tadqiqot davomida O'zbekiston Respublikasida yoshlar va xotin-qizlar sportini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari, sport tashkilotlari faoliyatiga oid materiallar hamda ilmiy adabiyotlar kompleks ravishda o'rganildi.

Tadqiqotning asosiy metodlaridan biri tarixiy-komparativ metod bo'lib, u orqali mustaqillik yillarida sport tizimining bosqichma-bosqich rivojlanishi va uning natijalari tahlil qilindi. Shu bilan birga, statistik tahlil usulidan foydalanilib, sport musobaqalarida ishtirok

etgan yoshlar va xotin-qizlar soni, xalqaro musobaqalarda qo'lga kiritilgan medallar hamda sport inshootlari rivojlanishiga oid ma'lumotlar umumlashtirildi.

Shuningdek, tizimli yondashuv asosida “Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” musobaqalarining o'zaro bog'liqligi hamda yoshlar sportini rivojlantirishdagi o'rni tadqiq etildi. Tadqiqot jarayonida tahliliy-sintetik metod yordamida sport siyosatining yoshlar va xotin-qizlar salomatligi hamda jismoniy barkamolligiga ta'siri ilmiy jihatdan umumlashtirildi.

“Umid nihollari”, “Barkamol avlod” va “Universiada” kabi uch bosqichli sport musobaqalari qisqa fursatda an'anaviy tizimga aylandi. Ushbu musobaqalar o'quvchi va talaba-yoshlar o'rtasida sportni ommalashtirish, ularni jismoniy tarbiya hamda sport harakatiga keng jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur tizim sportchilarning mahoratini oshirish bilan birga, hududlarda sport inshootlari sonining ko'payishi va tajribali sportchilar safining kengayishiga ham xizmat qildi.

Ta'kidlash joizki, 2000-yilning 26-mayida mamlakat talaba-yoshlari hayotida unutilmas tarixiy voqea bo'ldi. Respublika oliy ta'lim muassasalarining talaba va aspirantlari (hozirgi bazaviy doktorant) o'rtasida birinchi “Universiada – 2000” o'yinlari 2000-yili Namangan viloyatida bo'lib o'tdi. Kosonsoy tumanida o'tkazilgan bu musobaqalarda 1000 dan ortiq sportchilar 9 ta sport turi bo'yicha bellashdilar. Unda Namangan viloyati 1-o'rinni, Toshkent-1 jamoasi 2 o'rinni va Samarqand viloyati 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

“Universiada-2002” ikkinchi musobaqasi Buxoro shahrida o'tkazilgan bo'lib, unda 2848 nafar talaba ishtirok etdi va jamoalar o'rtasida 1-o'rinni Toshkent-1 jamoasi egallagan bo'lsa, 2-o'rinni mezbon-Buxoro vakillari va 3-o'rin Namangan viloyatiga nasib qildi[2; 55-b]. Respublika Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 15 iyunidagi “O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari talabalarining “Universiada-2004” sport musobaqalarini tashkil etish to'g'risida”gi 282-son qaroriga muvofiq yoshlar o'rtasidagi sport musobaqalarining yakuniy bosqichini Samarqand viloyatida 15-21 iyul kunlari o'tkazilishi belgilangani holda asosan mamlakat oliy ta'lim muassasalari talabalarini orasida mukammal sog'lom muhitni hamda turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, yoshlarni milliy va xalqaro sport turlari bilan muntazam shug'ullanishlari uchun qulay shart-sharoitlarni hozirlash, turli sport bellashuvlari orqali yosh avlodning jismoniy barkamolligini oshirishga e'tibor qaratildi. Biroq, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “Universiada-2004” sport musobaqalari o'tkazilishi munosabati bilan Samarqand shahrida olib borilgan umumqurilish, montaj va obodonlashtirish ishlarini o'rganish natijasida jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yilganligini aniqladi. Shu munosabat bilan viloyatda 15-21-iyul kunlari o'tkazilishi rejalashtirilgan musobaqalarning 4-7 sentyabr kunlarida bo'lishi belgilandi[3; 104-b]. Uchinchi Universiada sport musobaqalarida 2 600 dan ziyod talaba-sportchilar ishtirok etdi. Ushbu musobaqa dasturiga mini-futbol va og'ir atletika kiritildi[4; C.67.]. Bu musobaqalar Samarqand shahri hamda Toyloq tumani sport maydonlarida o'tkazildi. Musobaqa g'oliblari 230 ta oltin, 230 ta kumush hamda 251 ta bronza medallari bilan taqdirlandilar. Toshkent shahri, Samarqand hamda Namangan viloyati sportchilari “Damas” avtomashinalari sohibiga aylandilar[1; 104-b].

Toshkent shahrida 2007-yil 21-24-iyun kunlari “Universiada -2007” sport musobaqalari 12 ta sport turlari bo'yicha o'tkazildi. Bu musobaqalarda jami 146212 talaba, shundan, 52 635 qizlar va 93 577 yigitlar ishtirok etdilar. Mazkur musobaqalar mobaynida 212 ta oltin, 212 ta kumush va 234 ta bronza medallar komplekti qo'lga kiritildi. “Universiada -2007” sport

musobaqalari davomida birinchi o'rinni Toshkent shahar, ikkinchi o'rinni Namangan va uchinchi o'rinni Samarqand viloyatlari terma jamoalari qo'lga kiritdilar[2].

2010-yil iyunida Andijon shahrida "Universiada – 2010" sport musobaqalari bo'lib o'tdi. Musobaqalarda mamlakatning barcha hududlaridan kelgan 14 ta terma jamoalar qatnashdi. Universiadaning Respublika sport musobaqalari final bosqichida 1178 ta sportchilar, 238 ta murabbiylar, 154 ta hakamlar, 450 ta ommaviy axborot vositalari vakillari, vazirlik bo'limlari va oliy o'quv yurtlarining 209 ta vakillari qatnashdilar. Bu musobaqalarda 176 ta oltin, 176 ta kumush va 191 ta bronza medallari qo'lga kiritildi[7; 108-b]. Bellashuvlar natijalariga muvofiq umumjamoaga bo'yicha 1- o'rinni - Toshkent shahri, 2-o'rinni - Andijon viloyati jamoasi hamda 3-o'ringa Navoiy viloyati sportchilari sazovor bo'ldi. Andijon viloyati vakillari sport turlari bo'yicha jamoa hisobida jami 11 ta medallarga - 4 ta oltin, 4 ta kumush, 3 ta bronzaga egalik qildilar. Shaxsiy birinchiliklarda esa 29 ta oltin, 23 ta kumush va 29 ta bronza jami 81 ta medallar olindi. Musobaqa g'oliblariga tantanali ravishda Prezident sovrinlari – "Damas" avtomobili topshirildi. Turli sport turlari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichni namoyon qilgan sportchilar diplom va sovrinlar bilan taqdirlandi. Xullas, bu sport musobaqalarida 12 ta sport turlari bo'yicha bo'lib o'tdi[3; 33-b.].

"Universiada-2016" musobaqalarining final bosqichi Farg'ona shahrida bo'lib o'tdi. Unda Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardan jamoalar sportning 15 turi bo'yicha o'zaro bellashdilar. Sport musobaqalarida 1068 ta sportchi va murabbiy, 155 ta hakam hamda mamlakatning mashhur sportchilari, OAV xodimlari ishtirok etdilar. Bu sport musobaqalari 12 ta zamonaviy sport inshootlarida o'tkazildi. Musobaqalarda Toshkent shahri jamoasi eng ko'p medallarni qo'lga kiritgan holda birinchi o'rinni, Farg'ona va Samarqand viloyatlarining jamoalari esa ikkinchi va uchinchi o'rinlarni qo'lga kiritdilar. Samarqand shahridagi "Universiada – 2019" sport musobaqalarining voleybol bo'yicha ayollar va erkaklar o'rtasidagi mintaqaviy saralash bosqichi yakunlanib, unda Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari o'rtasida o'tgan bahslarda har ikki yo'nalishda samarqandlik voleybolchilar g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Sport bellashuvlari maqomidagi - "Barkamol avlod" o'yinlari mamlakat kasb-hunar kollejlari va akademik litseylari o'quvchilari o'rtasida o'tkazilib, undagi saralash musobaqalari o'quv yurti, tuman, shahar va viloyatlarda, respublika final bosqichi bitta hududda tashkil qilinishi belgilangan edi[9; 6-b]. Bu sport o'yinlari Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 19-yanvaridagi "O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 10 yilligini nishonlashga tayyorgarlik qo'rish va o'tkazish to'g'risida"gi 40-son qarori asosida tashkil etildi. Mazkur musobaqalarda eng avvalo olimpiada o'yinlari dasturiga kiritilgan sport turlari bo'yicha bellashuvlar o'tkazilishiga kelishilgan. Jumladan, akademik litsey hamda kasb-hunar kollejlari o'quvchilarining I Respublika "Barkamol avlod" sport musobaqalari 2001-yilning 30-aprelidan 5-mayigacha Jizzax shahrida o'tkazildi. Mazkur sport musobaqalarida 8 ta sport turi: basketbol, voleybol, kurash, belbog'li kurash, futbol, yengil atletika, tennis, suzish bo'yicha o'tkazilib, jami 1 862 nafar yoshlar qatnashdi. "Barkamol avlod" sport musobaqalari 2003-yili Andijon viloyatida 5 iyundan 11-iyungacha sportning 14 ta turidan[4; 78-b], xususan quyidagi sport turlari - basketbol, voleybol, futbol, qo'l to'pi, yengil atletika, milliy va belbog'li kurash, tennis, stol tennisi, shaxmat, badiiy gimnastika, og'ir atletika, boks va suzishga doir bellashuvlar o'tkazildi. Unda 2 786 nafar o'quvchi-yoshlar, har bir viloyatdan 199 nafardan, shundan 812 nafar qizlar qatnashgan. 2008-yil 17-21-may kunlari Qoraqalpog'iston Respublikasida

o'tkazilgan "Barkamol avlod" sport musobaqalari Respublika final bosqichi sportning 12 ta turidan o'tkazildi. Undagi ishtirokchilar soni 2 296 nafar, shundan qizlar 784 nafar, o'smirlar 1 106 nafar, murabbiylar 238 nafar va hakamlar 168 nafarni tashkil etdi. 2017-yilning 25-27-may kunlari Jizzax shahridagi "So'g'diyona" universal sport majmuasida "Barkamol avlod-2017" sport o'yinlari o'tkazildi. Unda sportning 17 xil turidan litsey hamda kollejlarning 898 nafar o'quvchilari qatnashdilar, ishtirokchilar - 193 oltin, 193 kumush hamda 214 bronza medallari uchun bellashdilar. Bu musobaqada eng ko'p medal jamg'arib, birinchi o'rinni egallagan Toshkent shahri jamoasiga bosh mukofot – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Barkamol avlod-2017" sport o'yinlari qatnashchilariga tabrigining asl nusxasi va Prezident sovg'asi – "Damas" avtomobili bilan taqdirlandi[5]. Umumjamo'a hisobida ikkinchi o'rinni egallagan Andijon viloyati vakillari va uchinchi o'ringa loyiq topilgan Samarqand viloyati jamoasiga Prezident sovg'asi – "Damas" avtomobili topshirildi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston hukumati istiqloqlarning dastlabki pallasidan boshlaboq yoshlar va xotin-qizlar sportini qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirishga alohida e'tibor qaratdi va unga doir chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Bu sa'y-harakatlar, eng avvalo, o'sib kelayotgan yosh avlod va ayollar sportini taraqqiy ettirishga ko'maklashdi hamda ular o'z jismoniy qobiliyatlarini mamlakat va xalqaro sport arenalarida ko'rsatdilar.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Юсупов К.Т. Жисмоний тарбия ва спорт болалар ҳамда ўқувчи ёшлар саломатлигини муҳофаза қилиш ва мустаҳкамлаш тизимида // Фан-спортга.-Тошкент, 2004.-№1.-Б.4.
2. O'z MA, M.1-fond, 1-ro'yxat, 14-yig'majild, 55-varaq.
3. O'z MA, M.38-fond, 9-ro'yxat, 14-yig'majild, 104-varaq.
4. Асатова Г.А. История физической культуры и олимпийского движения (олимпийская энциклопедия).-Ташкент: ИПТД имени Чулпана, 2019.-С.67.
5. O'z MA, M.38-fond, 9-ro'yxat, 14-yig'majild, 104-varaq orqasi.